



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEKANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BYUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
"YASHIL" INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
IJTIMOIIY HIMOA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	221
Aipova Iroda Ikramovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	226
Musayeva Shoira Azimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
Sevara Hakimova Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI	251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna	
YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI	255
Turanov Suhrob Bahodir o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR	262
Nazarov G'ulom Akmal o'g'li	



OLIJ TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR

Nazarov G'ulom Akmal o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi, PhD

Email: g_nazarov@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarining media imijini shakllantirish va uning moliyaviy ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan asosiy ilmiy yo'nalishlar asoslab beriladi: media imijni nomoddiy aktiv sifatida kapitallashuv mexanizmi, resurslarni maqsadli taqsimlashga qaratilgan integral imij indeksi, investitsiya rentabelligini (ROI) ta'minlovchi samaradorlikka asoslangan budjetlashtirish hamda shaffoflik va risklarni baholovchi "Smart-budget" adaptiv mexanizmi taklif etilgan. Ushbu yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining media makonidagi institutsional nufuzini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, media imij, moliyaviy ta'minot, nomoddiy aktiv, kapitallashuv, investitsiya rentabelligi (ROI), Smart-budget, raqamli kontent, institutsional nufuz, adaptiv mexanizm.

Abstract. The article substantiates the main scientific directions aimed at improving the financial support for the formation of the media image of higher education institutions: the mechanism of capitalizing the media image as an intangible asset, the integral image index for targeted resource allocation, performance-based budgeting providing return on investment (ROI), and the "Smart-budget" adaptive mechanism based on transparency and risk assessment. The proposed approaches serve to enhance the institutional reputation of universities in the media space and strengthen their financial stability.

Key words: Higher education, media image, financial support, intangible asset, capitalization, return on investment (ROI), Smart-budget, digital content, institutional reputation, adaptive mechanism.

Аннотация. В статье обоснованы основные научные направления, направленные на совершенствование финансового обеспечения формирования медиа-имиджа высших образовательных учреждений: механизм капитализации медиа-имиджа как нематериального актива, интегральный индекс имиджа для целевого распределения ресурсов, бюджетирование, ориентированное на результат и возврат инвестиций (ROI), а также адаптивный механизм "Smart-бюджет", основанный на прозрачности и оценке рисков. Предложенные подходы служат повышению институционального авторитета вузов в медиа-пространстве и укреплению их финансовой устойчивости.

Ключевые слова: Высшее образование, медиа-имидж, финансовое обеспечение, нематериальный актив, капитализация, рентабельность инвестиций (ROI), Smart-бюджет, цифровой контент, институциональный авторитет, адаптивный механизм.

KIRISH

Ta'lim xizmatlari bozorining globallashuvi va raqamli iqtisodiyotning institutsional shakllanishi sharoitida oliy ta'lim muassasasi (OTM) imiji subyektiv axborot mahsuloti darajasidan universitetning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi va uning bozor qiymatini belgilovchi "nomoddiy aktiv" darajasiga ko'tarildi [1]. Zamonaviy iqtisodiy paradigmada ijobiy media imij nafaqat axborot maydonidagi nufuzni, balki to'g'ridan to'g'ri abituriyentlar oqimini generatsiya qiluvchi, demakki, OTMning xususiy kontrakt tushumlari hajmini va moliyaviy diversifikatsiyasini belgilovchi strategik resurs hisoblanadi [2]. Shu bois, media faoliyatga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarni



an'anaviy ma'muriy xarajatlar toifasidan chiqarib, ularni yuqori multiplikativ samara beruvchi investitsion aktiv sifatida boshqarishning ilmiy-metodologik yechimlarini ishlab chiqish obyektiv zaruriyatga aylandi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan moliyaviy mustaqillik mexanizmlari imij siyosati uchun mablag' ajratishning qat'iy normativlari va natijaviylik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash ehtiyojini yuzaga keltirdi. An'anaviy marketing kommunikatsiyalari o'zining tarqatish kuchi va ta'sir doirasini yo'qotayotgan bir sharoitda, raqamli ekotizimlar (SMM, algoritmlashtirilgan targeting, kontent-marketing) orqali institutsional brend yaratish tamoman yangi, adaptiv moliyaviy modellarni talab etadi.

Mazkur maqola media kontent yaratish va uning translyatsiyasi uchun ajratiladigan mablag'larning iqtisodiy qaytimini (ROI) baholash mexanizmini yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, bu OTM budjet mablag'larining maqsadli va yuqori samarali sarflanishini kafolatlaydi. Milliy universitetlarning xalqaro akademik reytinglarga (QS, THE, Webometrics) integratsiyalashuvi bevosita ularning global media makonidagi ochiqligi va raqamli faollik koeffitsiyentiga bog'liqdir.

Media imijni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali universitetning institutsional jozibadorligi ortishi quyidagi iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Media imijni OTMning strategik moliyaviy aktivi sifatida boshqarish universitetning raqobatbardoshligini ta'minlash va uning iqtisodiy mustaqilligini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning fundamental asosidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining media imijini shakllantirish, uni strategik yo'naltirish va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'lim menejmentining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro va mahalliy olimlarning tadqiqot obyekti aylangan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari ushbu sohaning metodologik asosini tashkil etadi.

Xalqaro miqyosda Philip Kotler va Karen Fox o'zlarining "Marketing for Higher Education" asarida universitet marketingini brendni shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish nuqtayi nazaridan moliyaviy rejalashtirishni strategik resurs sifatida talqin etsalar, Kevin Lane Keller "Strategic Brand Management" fundamental tadqiqotida ta'lim muassasasi brend kapitalini yaratish va uni moliyaviy jihatdan ROI (Return on Investment) ko'rsatkichlari orqali o'lchash mexanizmlarini ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, Christine Ennew va Nigel Waite kommunikatsion strategiya uchun alohida budjet bandlarini rejalashtirish zarurligini uqtirsa, María-José Esteves, Laura Pérez, Pamela Boullier va Daniel Egret kabi tadqiqotchilar global universitetlar tajribasida moliyaviy resurslar va kommunikatsiya strategiyasining muvofiqlashtirilishi institutsional barqarorlikning garovi ekanligini qayd etadilar.

Mahalliy olimlardan B.O. Tursunov axborot xizmatlarining moliyaviy mustaqilligini oshirishni PR strategiyalarining muvaffaqiyati bilan bog'lasa, M.M. Jo'rayev raqamli infratuzilma uchun maxsus moliyaviy dasturlar ishlab chiqish g'oyasini ilgari suradi. S. Komilova moliyaviy ta'minot va axborot siyosati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni iqtisodiy samaradorlik prizmasida tahlil qilib, manbalarni diversifikatsiya qilishni taklif etsa, Sh. Qodirov tomonidan ishlab chiqilgan konseptual model media strategiya va moliyaviy boshqaruv integratsiyasini institutsional jihatdan asoslaydi.

Umumlashtirib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro tadqiqotlar ko'proq strategik marketing investitsiyalariga e'tibor qaratsa, mahalliy olimlar ushbu nazariyalarni O'zbekiston ta'lim tizimining real holatiga moslashtirgan holda media imijni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning amaliy modellarini ishlab chiqmoqdalar.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish davomida analitik tahlil, boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish, qiyosiy tizimli tahlil, respondentlar bilan ishlash, eksperiment, statistik analitika, matematik modellashtirish va grafik usullaridan foydalanildi. Nazariy bilimlarni shakllantirish uchun abstrakt-mantiqiy usuldan foydalanildi. Oliy ta'lim muassasalarining sifat indeksini aniqlash uchun analiz va sintez, proktoring, AML monitoring, ekspert baholash hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar doirasida OTMlarga moliyaviy va akademik mustaqillik berilishi ularning boshqaruv modelini tubdan o'zgartirdi. Strategik islohotlar natijasida oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2017-yildagi 9 foizdan 2026-yilga kelib 44 foizga yetkazildi.

2018-yilda respublikada jami 77 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2026-yil holatiga ko'ra ularning soni 207 tadan oshdi. Bozor iqtisodiyoti talablari asosida 74 ta nodavlat va 32 tadan ortiq xorijiy OTMlar hamda ularning filiallari tashkil etildi (1-rasm) [4].

1-rasm. 2018-2025-yillar davomida oliy ta'lim muassasalariga soni¹

Talabalar kontingentining mazkur davrda 344,7 ming nafardan 1,6 million nafardan ziyodga oshishi (qariyb 4,7 barobar o'sish) va ta'lim bilan qamrov darajasining 15 foizdan 44 foizgacha ko'tarilishi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida abituriyentlarni jalb qilish uchun kuchli raqobatni yuzaga keltirdi.

Xorijiy OTMlar filiallari sonining 32 taga yetgani esa milliy universitetlardan xalqaro standartlarga mos media-kommunikatsiya va brending strategiyalarini talab etmoqda (2-rasm).


2-rasm. 2019-2025-yillar davomida oliy ta'lim muassasalariga kirishga hujjat topshirgan abituriyentlar soni²

OTMlar sonining keskin ortishi ta'lim xizmatlari bozorida erkin raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Endilikda abituriyent va talaba uchun kurash nafaqat ta'lim sifati, balki muassasaning jamiyatdagi nufuzi — media imiji orqali amalga oshirilmoqda.

Universitetning media imijini shakllantirish bevosita moliyaviy resurslarni talab etadi. OTM imijining an'anaviy tuzilmasi to'ldirilgan hamda OTM imijiga ta'sir etuvchi omillar ro'yxati kengaytirilgan. Imijning asosiy elementlari nomlarini (ta'lim xizmatlari imiji, iste'molchilar imiji, ichki imij, rektor va rahbarlar imiji, xodimlar imiji, vizual imij, ijtimoiy imij, biznes imij) saqlagan holda, muallif ularning mazmunini oliy ta'lim muassasalari faoliyatining maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda ochib bergan (3-rasm).

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



3-rasm. Ta'lim sohasi iste'molchilari uchun oliy ta'lim muassasasi jozibadorlik omillari guruhlari tuzilmasi³

Zamonaviy yondashuvlarda media imijni moliyalashtirish innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanmoqda. Xususan, raqamli marketing, sun'iy intellekt asosidagi PR vositalari va ma'lumotlar tahliliga asoslangan kommunikatsiya strategiyalari moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi (4-rasm).



4-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida media imij moliyaviy ta'minotining amalga oshirish mexanizm tartibi⁴

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida OTM media imijini shakllantirishning moliyaviy ta'minoti nafaqat ma'muriy-kommunikativ faoliyat, balki universitetning kapitallashuv darajasini oshiruvchi strategik investitsion mexanizm ekanligi ilmiy asoslandi. Tadqiqot davomida OTMning raqamli makondagi ko'rinishi va uning moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ekonometrik modellashtrish orqali isbotlanib, media aktivlarni boshqarishda "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" tamoyillarini qo'llashning yuqori iqtisodiy rentabelligi aniqlandi. Ilmiy natijalar shuni ko'rsatadiki, media imij xarajatlarini xalqaro reyting indikatorlari bilan integratsiya qilish abiturientlarni jalb qilish qiymatini optimallashtirishga va OTMning budjetdan tashqari mablag'lari hajmini tizimli ravishda oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, imij siyosatini moliyalashtirishning an'anaviy modellardan voz kechib, uni universitetning strategik moliyaviy aktivlari sifatida boshqarishning uslubiy asoslari takomillashtirildi.

Birinchidan, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integral imij indeksi OTMning institutsional nufuzini kompleks baholash va moliyaviy resurslarni maqsadli taqsimlash imkonini beradi. OTMlarning media makonidagi


3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



institutsional nufuzini kompleks baholashda integral imij indeksi tarkibi 45 foiz raqamli kontent rivojlantirish, 30 foiz IT infratuzilmani modernizatsiya qilish va 25 foiz onlayn kommunikatsiya kanallarini boshqarish ulushlarini belgilash maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 45 foiz raqamli kontent rivojlantirish iste'molchining (abituriyent, hamkor) qaror qabul qilishida vizual va mazmuniy ma'lumotlar eng yuqori ta'sir koeffitsiyentiga ega. Shuning uchun moliyaviy resurslarning asosiy qismi sifatli videokontent, ilmiy infografika va kreativ materiallar yaratishga yo'naltirilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, 30 foiz IT infratuzilmani modernizatsiya qilish raqamli kontentning uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlovchi texnik bazaning minimal zaruriy qiymatidir.

2020–2025-yillar davomida Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmanistondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida universitet media imiji va obro'sini baholovchi OTMIII indeksi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. O'sishning asosiy omillari ilmiy sitatalarning ortishi, sayt faolligi va trafik, xalqaro hamkorlik va xorijiy talabalar soni hamda Google Trend orqali jamoatchilikdagi qiziqish hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari integral imij indeksi ko'rsatkichlari⁵

Ko'plab universitetlar reytinglaridagi barqaror o'sish an'anaviy akademik yutuqlar bilan faol raqamli mavjudlikni uyg'unlashtirish orqali xalqaro imijni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa OTMIlarning nufuzini oshirish bilan birga, talabalarni jalb qilish, grantlar olish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Ikkinchidan, OTMIlarda investitsiya qaytimini oshirish maqsadida media ta'sirchanlik ko'rsatkichlari hamda ta'lim xizmatlariga talab shakllanish ehtimolini hisobga oluvchi samaradorlikka qaratilgan budjetlashtirish transformatsiya qilinib, investitsion samaradorlik koeffitsiyentini 18 foiz etib belgilash maqsadga muvofiq. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, media imijga yo'naltirilgan mablag'larning kamida 18 foizlik qaytimi ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va keyingi rivojlanish bosqichlarini o'zini o'zi moliyalashtirish orqali qoplash imkonini beradi. Budjetlashtirishning ushbu modeli joriy etilganda, samarasiz kommunikatsiya kanallariga sarflanadigan mablag'lar qisqarib, maqsadli auditoriya bilan ishlash jarayoni faollashadi.

Uchinchidan, mediakommunikatsion faoliyatga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar samaradorligini to'g'ri yo'naltirish maqsadida shaffoflik, risklilik darajasi, strategik barqaror pozitsiya ko'rsatkichlarini konsolidatsiyalashgan adaptiv budjet mexanizmi dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. An'anaviy qat'iy budjetlashtirishdan farqli o'laroq, adaptiv mexanizm tashqi media muhitning o'zgaruvchanligini (bozor konyunkturas, raqamli trendlar) hisobga oladi. Moliyaviy resurslarning shakllanishi raqamli monitoring (masalan, AML-monitoring) elementlari orqali nazorat qilinadi. Bu OTM boshqaruvining ochiqqligini ta'minlab, institutsional ishonchni oshiradi. Media kampaniyalarning kutilgan natijani bermaslik ehtimoli (masalan, auditoriya qamrovining pastligi) iqtisodiy-matematik usullar bilan oldindan baholanadi. Moliyaviy resurslar risk darajasi past bo'lgan, yuqori konversiyali kanallarga ustuvor ravishda yo'naltiriladi. Taklif etilgan mexanizm real vaqt rejimida media ko'rsatkichlarni tahlil qiladi. Agar ma'lum bir media kanal (masalan, maqsadli reklama yoki raqamli kontent) belgilangan 18 foizlik investitsion samaradorlikni bermayotgan bo'lsa, tizim adaptiv ravishda resurslarni samaraliroq yo'nalishga qayta taqsimlaydi. Bu esa "Smart-budjet"ning asosiy iqtisodiy yutug'idir.

5 Muallif ishlanmasi



To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida media faoliyati ko'rsatkichlari bilan kontrakt tushumlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni inobatga olib, ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar soni, post ko'rishlari va media xarajatlarning oshishi universitetlarning moliyaviy daromadlarining 2030-yillarga mo'ljallangan kontrakt tushumlari prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy moliyaviy manbalaridan biri bo'lgan kontrakt tushumlari, avvalo, talabalar soni va kontrakt to'lovlari miqdori bilan bevosita bog'liqdir. Talabalar kontingentining ko'payishi, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi hamda kontrakt narxlarining bosqichma-bosqich oshirilishi universitet tushumlarining uzoq muddatli o'sishiga asos yaratadi. Shu bilan birga, bu omillar o'z-o'zidan yetarli bo'lmay, ta'lim muassasasining bozor sharoitida raqobatbardoshligini ta'minlovchi qo'shimcha mexanizmlarni talab etadi. Aynan shu nuqtada universitetlarning media imiji va axborot siyosati moliyaviy natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Universitet to'lov kontrakt tushumlarining prognoz modellari⁶

№	Model turi	Trend tenglamasi	Determinatsiya koeffitsiyenti	MAPE(%)
1.	Chiziqli trend	$Y_t = 47200 + 118300t$	0.84	17.27
2.	Kvadrat model	$Y_t = -92000 + 265000t - 24500t^2$	0.93	5.78
3.	Logorofmik model	$Y_t = 132500 + 210400 \ln(t)$	0.78	29.13
4.	Ekspontensial model	$\ln(Y_t) = 11.93 + 0.326t$	0.96	8.48
5.	ARIMA(1.1.1)	$\Delta Y_t = 0.41 \Delta Y_{t-1} - 0.37 \epsilon_t - 1$	0.89	8.23

So'nggi yillarda oliy ta'lim bozorida raqobatning kuchayishi universitetlarni an'anaviy marketing yondashuvlaridan voz kechib, raqamli media va ijtimoiy tarmoqlarga tayanishga majbur qilmoqda. Media xarajatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, auditoriya qamrovi va obunachilar sonining oshishi universitet brendining tanilish darajasini kuchaytirib, natijada talabalar oqimining ko'payishiga olib keladi. Bu jarayon kontrakt tushumlarining faqat chiziqli emas, balki tezlashib boruvchi o'sish xususiyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Shu sababli tushumlar dinamikasini tahlil qilish va prognozlashda turli trend va vaqt qatori modellarini qo'llash zarurati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya va oliy ta'lim tizimidagi moliyaviy mustaqillik islohotlari sharoitida universitet media imiji subyektni tanitish vositasidan OTMning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi strategik nomoddiy aktivga aylandi. OTMning media makondagi nufuzini kompleks baholashda raqamli kontentni rivojlantirish, IT infratuzilmani modernizatsiya qilish va onlayn kommunikatsiya kanallarini boshqarish ulushlarining ilmiy asoslanishi moliyaviy resurslarni eng yuqori natija beradigan yo'nalishlarga maqsadli taqsimlash imkonini yaratdi. Media faoliyatni moliyalashtirishda investitsion samaradorlik koeffitsiyenti OTMning moliyaviy barqarorligi va resurs qaytimi (ROI) o'rtasidagi eng maqbul muvozanat nuqtasi hisoblanadi.

Shuningdek, risklarni baholash va strategik barqarorlik ko'rsatkichlarini birlashtirgan adaptiv budjetlashtirish modeli moliyaviy mablag'larning noo'rin sarflanishini qisqartirishga xizmat qildi. Yangi yondashuv OTM imijini moliyalashtirishni "raqamli kapital yaratish" bosqichiga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu universitetning nafaqat ta'lim sohasida, balki raqamli iqtisodiyotning to'laqonli subyekti sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8129755>
3. Marques J. University communication strategies and PR practices in higher education // Journal of Communication Management. – 2022. – Vol. 26, №3. – P. 215–229.
4. Vasilescu, R., Barna, C., Epure, M., & Baicu, C. (2020). Embedding social responsibility into university communication strategies: Implications for global reputation. Social Responsibility Journal (Emerald), 16(4), 517–534.
5. Yo'ldoshev, N. K. Menejment [Matn]: darslik / N. K. Yo'ldoshev, V. I. Nabokov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020. – 446 b.
6. Nazarov, G'.A. The importance and role of media image in the strategic development and contemporary reputation of higher education institutions / G'.A. Nazarov // Innovation Science and Technology ilmiy jurnali. – 2025. – Vol. 1. – Issue 02. – P. 6-13. – ISSN: 3060-5229.

6 Muallif ishlanmasi



7. Kamarulzaman, S. A., Zahid, Z., Haron, H., Rambli, A., & Abdullah, N. (2018). Modelling the relationship between university brand image and alumni loyalty using a partial least squares-structural equation model (PLS-SEM) approach. *Journal of Social Sciences Research*, 2018(Special Is), 657–663
8. Tran, Q., Nguyen, T., Nguyen, H., Tran, T., Duong, T., Nguyen, N., & Trinh, T. (2023). The impact of brand image on public university links in the context of autonomy: A case study in Vietnam. *International Journal of Data and Network Science*, 7(2), 553-562
9. Иванова, Ю.О. Позитивный имидж рейтинговых образовательных организаций высшего образования и факторы их привлекательности [Электронный ресурс] / Ю.О. Иванова // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. - 2016. - № (89).
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot — 2025 [Elektron resurs]. - Toshkent, 2025. - Kirish: https://cbu.uz/oz/publications/annual_report/
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda - 2025 [Elektron resurs]. - Toshkent, 2025. - Kirish: <https://stat.uz/oz/official-statistics/publications>
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati to'g'risidagi hisobot. IV chorak 2025 [Elektron resurs]. - Toshkent, 2026. - Kirish: https://cbu.uz/oz/publications/monetary_policy_report/
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot - 2025 [Elektron resurs]. - Toshkent, 2025. - Kirish: <https://mf.uz/oz/budget/execution/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
